XALQ DEPUTATLARI KONIMEX TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 14 - dekabr VI-32-61-5-70-K/21 Konimex tuman hokimligi

Konimex tumani 2021-yil byudjeti hamda mahalliy byudjeti daromadlar rejasining ijrosi taxlili hamda 2022-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning MFY kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsyentlarini qo‘llagan xolda yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli “Resurs soliqlari va mol- mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasi hamda 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi “Maxalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24 -moddalariga asosan 2022-yil uchun Konimex tumanida belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarni mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2022-yilga yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash bo‘yicha Xalq deputatlari Konimex tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.Konimex tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i R.Tursunovning 2021-yil byudjeti hamda mahalliy byudjeti daromadlar rejasining ijrosi taxlili hamda 2022-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning MFY kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsyentlarini qo‘llagan xolda yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq Konimex tuman uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Xalq deputatlari Konimex tuman Kengashi deputatlari yuqoridagi 1-2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlami belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

5.Konimex tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Elmuratov, tuman moliya bo‘limi (J.Karimbayev), tuman soliq inspeksiyasi (R.Tursunov)larga 2022-yildagi budjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

6.Mazkur qaror “Kenimex tani” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining *konimex.uz* rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

7.Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati joriy yilning 1 dekabiriga qadar keyingi soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljalanmagan yer uchastkalari uchun soliq stavlarini belgilangan tartibda soliq organlariga kiritsin.

8.Ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (R.Tursunov) hamda Xalq deputatlari Konimex tuman Kengashining Mahalliy byudjetni, shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (A.Xudayberdiev)lar zimmasiga yuklatilsin.

9.Qaror 2022-yil 1-yanvaridan boshlab kuchga kiradi

Sessiya raisi **Saitov U. I.**

Халқ депутатлари Конимех туман
Кенгашининг
2021 йил 14 декабрдаги
VI-32-61-5-70-K/21-сон қарорига
1-илова

Yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

№	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	2022 yil uchun 1 (bir) kv.m. uchun bazaviy soliq stavkasi so‘mda	Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2022 yil uchun 1 (bir) kv.m. uchun so‘mda)
1	Sho‘rtepa MFY	29000000,0	1,0	29000000,0
2	Navro‘z MFY	29000000,0	1,0	29000000,0
3	Birlik MFY	29000000,0	1,0	29000000,0
4	Do‘stlik MFY	29000000,0	1,0	29000000,0
5	Guliston MFY	29000000,0	1,0	29000000,0
6	Yuksalish MFY	29000000,0	1,0	29000000,0
7	To‘qqiztepa MFY	29000000,0	1,0	29000000,0
8	Sho‘rko‘l MFY	29000000,0	1,0	29000000,0
9	Zafarobod MFY	29000000,0	1,0	29000000,0
10	Ko‘kcha MFY	29000000,0	1,0	29000000,0
11	Qaraqata OFY	29000000,0	1,0	29000000,0
12	Sarjal OFY	29000000,0	1,0	29000000,0
13	Yangiqazg‘on OFY	29000000,0	1,0	29000000,0
14	Baymurat OFY	29000000,0	1,0	29000000,0
15	Uchtepa OFY	29000000,0	1,0	29000000,0

*Izoh: Navoiy viloyati bo‘yicha yuridik shaxslar uchun 1 gektar er maydoniga bazaviy soliq stavkasi 29000000,0 so‘m belgilangan . Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi qaroriga asosan Konimex tumanida bazaviy soliq stavkasi nisbatan 1,0 koeffitsent belgilangan 29000000,0*1,0=29000000,0) ya’ni 2022 yil uchun Konimex tumanida bazaviy soliq stavkasi 29000000,0 so‘mni tashkil qiladi.*

Халқ депутатлари Конимех туман
Кенгашининг
2021 йил 14 декабрдаги
VI-32-61-5-70-K/21-сон қарорига
2-илова

Jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

so‘mda

№	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	2022 yil uchun 1 (bir) kv.m. uchun bazaviy soliq stavkasi so‘mda	Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2022 yil uchun 1 (bir) kv.m. uchun so‘mda)
1	Sho‘rtepa MFY	260,0	1,0	260,0
2	Navro‘z MFY	260,0	1,0	260,0
3	Birlik MFY	260,0	1,0	260,0
4	Do‘stlik MFY	260,0	1,0	260,0
5	Guliston MFY	260,0	1,0	260,0
6	Yuksalish MFY	260,0	1,0	260,0
7	To‘qqiztepa MFY	260,0	1,0	260,0
8	Sho‘rko‘l MFY	260,0	1,0	260,0
9	Zafarobod MFY	260,0	1,0	260,0
10	Ko‘kcha MFY	260,0	1,0	260,0
11	Qaraqata OFY	260,0	1,0	260,0
12	Sarjal OFY	260,0	1,0	260,0
13	Yangiqazg‘on OFY	260,0	1,0	260,0
14	Baymurat OFY	260,0	1,0	260,0
15	Uchtepa OFY	260,0	1,0	260,0